

## PARENTHESES AS A MEANS OF CREATING IRONY

Zaripova Dildora Zakir qizi,

Master's student of Linguistics (Uzbek language),

Urgench RANCH Technological University

**Abstract:** This article examines the role of interjectional constructions, in particular, parentheses, in creating irony (pitch) in artistic and journalistic speech. It is illustrated through examples that parentheses are not only a means of providing additional information, but also a powerful stylistic figure expressing the author's hidden attitude to reality, irony and sarcasm.

**Keywords:** parentheses, interjectional constructions, irony, sarcasm, antiphrase, irony, paronomasia, modal pragmatics.

## PARANTEZA IRONIYA HOSIL QILISH VOSITASI SIFATIDA

Zaripova Dildora Zokir qizi,

Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti,

Urganch RANCH texnologiya universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kiritma konstruksiyalar, xususan, parantezalarning badiiy va publitsistik nutqda ironiya (piching) hosil qilishdagi o‘rni tadqiq etiladi. Parantezalar faqatgina qo‘shimcha ma’lumot beruvchi vosita emas, balki muallifning voqelikka bo‘lgan yashirin munosabatini, kinoya va sarkazmini ifodalovchi kuchli stilistik figura ekanligi misollar orqali yoritib berildi.



**Kalit so‘zlar:** paranteza, kiritma konstruksiyalar, ironiya, sarkazm, antifraza, istehzo, paronomaziya, modal pragmatika.

Ironiya ko‘p qirrali hodisa. Unga ko‘plab tilshunoslar murojaat qilishgan. Turli adabiyotlarda turli xil fikrlarni uchratishimiz mumkin. Ironiyaga har tarafdin yondashilgan. Mavjud adabiyotlarda ironiya haqidagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, ironik mazmun ikki xil ifodalanadi. Birinchi qarash tarafdorlari ironiya so‘z va iboralarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali hosil bo‘ladi, desalar, ikkinchi qarash tarafdorlari ironiya so‘z va iboralarni alohida, maxsus qo‘llash orqali hosil bo‘ladi deydi.

Ironiya badiiy matnda tilga olingan so‘z va iboralarning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatiladigan kesatiq, qochirim, pichingdan iborat ko‘chimdir. Ironiyaning ildiziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Aflotunda ironiya shunchaki yolg‘on yoki behuda gaplar emas, mohiyatan ifodalanmagan narsaning to‘liq teskarisini ifodalaydigan birlik sifatida qaralgan. Suqrot asarlarida ham ironiya istehzoning bir ko‘rinishi bo‘lib uning yordamida juda ko‘p haqiqatlarga yuzlanish va ayta olish uchun asosiy qurol sifatida foydalanilgani sir emas. [Osinovskaya I, 2007; 84] M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” asarida esa kinoya “til birligining haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim» ga aytilishi yozilgan. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta’sirchan ifodalar yaratishda qo‘llanilib kelinganligi, Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa “ironiya” atamasi ostida umumlashtirilishi qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Uning **antifraza** (*masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish*) hamda **sarkazm** (*zaharxanda*



*ta'na, iztehzoli piching, shama*) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanishi asoslab berilgan. [Yo‘ldoshev M, 2007; 63 ]

Ironiya faqat istehzoli kulgi yuzaga keltiruvchi vosita bo‘lib qolmasdan, katta bir ijtimoiy mazmun kasb etishi mumkin. Uning badiiy uslubdagi xizmati shundan iboratki, fikr vulgar, qo‘pol holda emas, balki bir muncha silliq, pardali, madaniy libos kiydirilgan holda bayon qilinadi. Ironiya orqali badiiy asarda zaharxandalik va hatto alamli his-tuyg‘ular ma‘lum qobiqqa o‘ralgan holda ifoda etiladi. Tilshunos olimi O.S.Axmanova aytganidek: “ironiya ustidan kulishning nozik va yashirin mazmun orqali teskari ma‘noda ishlatish maqsadiga asoslanadi”.

Ma‘lumki, E.A‘zam asarlari kinoyaviy tasvir elementlariga boyligi bilan boshqa ijodkorlar uslubidan tamoman farq qiladi. Yozuvchi ijodida so‘zlovchining kinoyali sub‘ektiv munosabati paranteza shaklida matnga kiritilib, fikrning o‘ta ta‘sirchanligi, ekspressivligi, emotsionalligi uchun xizmat qiladi. Bunda yuzaki qaraganda, so‘zlovchi jiddiy gapirayotganga o‘xshaydi, ammo uning gapi tagida haqiqiy ma‘no(pragmatika)ga qarama-qarshi bo‘lgan yashirin kulgi yotadi.

Yozuvchining yumoristik xarakterdagi qissalarida ko‘proq kinoyaning assotsiativ usulidan keng foydalangan. Masalan, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Pakana”, “Guli-guli” kabi qissa nomlarini bildirgan so‘zlarning kinoyaviy mazmun kasb etgani yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini yaqqol ko‘rsatgan. Bibliyonim sifatida keltirilgan bu kinoya orqali “Pakananing oshiq ko‘ngli” va “Pakana” qissalarida - Pakana, “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasida Asqar, “Guli-guli” qissasida Mo‘min kal - “Maymun” kabi personajlarning ma‘naviy hamda



jismoniy qiyofasiga ishora qilinadi. Ayniqsa, yozuvchining “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida Pakananing tashqi qiyofasi, ko‘rinishiga berilgan ta’rif kinoya vositasida nihoyatda original tasvirlangan: *Hamma balo shundaki, u o‘zi haqida boshqacha fikrda edi. O‘zini barvastayu basavlat deb bilmasa-da, harqalay, hiylagina ulug‘vor hisoblardi. (Ko‘nglida, albatta) Yurganda jussasiga yarasha pildirabgina yurmay, salmoq bilan, butini yirtgudek yirik-yirik qadam tashlar, gapirganda mavrid-bemavrid so‘lish olib, salmoq bilan ta’sirchanlikka intilibmi yoki diqqatni tortish uchunmi xuddi mahfiy bir sinoatni ochayoganday pichirlab gapirar edi.* (E A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli:2) Yozuvchining qissa ekspozitsiyasidayoq kinoyaviy usuldan foydalanishi uning yumoristik asarlar yaratishda mazkur vositadan unumli va o‘rinli foydalanishidagi san’atkorligini yaqqol ko‘rsata olgan.

Erkin A’zam asarlarida paranteza ironiya ifodalovchi vosita sifatida ko‘zga tashlanadi.

Quyida situativ ironiyaning ko‘rinishlarini Erkin A’zam asarlari misolida tahlil qilamiz. *Kursdoshlarimdan Eshqobil, Shahob, Nurmamat va Rustam qalb amri bilan studentlar zarbdor qurilish otryadi safida Qoraqalpog‘istonga ketishgan – davrimizning ulkan inshootlaridan birini bunyod etishda qatnashgani (aqcha ishlab kelib boyvachchalik qilgani); Samad, Jo‘ra, va Nazar qishloqlariga- “boboy-momoy” lariga ko‘maklashgani (bultur o‘zlari borib tiklab kelgan devorni qulatib, qaytadan ko‘targani); Elvira, Arofat, va Barno sog‘lomlashtirish lageriga- paxtadan ham oq badanlarini jindek bo‘lsa-da qoraytirgani (o‘qish boshlangach, tanaffus payti yo‘lakda “shokoladrang teri” haqida qizg‘in bahslashgani).* (E.A’zam, Otoyning tug‘ilgan yili:13)



Parantezaning fosh qiluvchi funksiyasi ham borki, u persanojning soxta qiyofasini fosh qilishga xizmat qiladi. *Rajik kelgan Moskvadan. Jiyanhashkam. Barnoshaning o'g'li. Huv aytuvdim-ku sizga, balet maktabida o'qiydigan. Hamma shu yerda edi. Sizni rosa poyladik. ("Poylabsiz-u, qo'ng'iroq qilish xayolingizga kelmabdi, qarang!")* (E.A'zam, Bayramdan boshqa kunlar:164) *Pakana xona to'ridagi antiqa moslamali baland yaltiroq karovatga zo'rg'a tirmashib chiqadi-da, chalqanchasiga cho'zilib yotadi. Nuqul dohiylarni davolagan (Chingizxonu Napolendan bo'lak-afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi!) zot uning oyoqlarini juftlab qayish bilan chandib tortadiyu karovat adog'idagi nimagadir mahkam qistirib qo'ydi.* (E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli:22).

Matn dinamikasini ta'minlash, ya'ni matndagi monotonlikni buzib, "muallif-kitobxon" muloqotini jonlantirish vazifasini ham parantetik birliklar bajara oladi. *Ashur kal eskilik sarqiti sifatida nosdan voz kechib, zamonaviylikka intilib sigaretga o'tibdi. ("Koshki foydasi bo'lsa, telpakni tashlab, shlyapa kiyganda ham baribir hammaga ma'lum: boshi yaltiroq kal!")* (E.A'zam, Anoyining jaydari olmasi: 3).

Kinoyaning eng yuqori darajasi sarkazm ya'ni achchiq zaxarhanda kulgi hisoblanadi. *Otashqalb olis o'lkalarda surgunda yurarkan, bir daqiqa bo'lsin ijodini to'xtatmagan. Kecha-yu kunduz o'tirib yozgani yozgan ekan. (Surgun emas ijodiy ta'til bo'l-a!)* (E.A'zam, Shoirning to'yi: 132).

Ba'zan sarkazm qahramonni ochiqdan-ochiq mazax qilish hisobiga yuz beradi. *Esonberdiyev, o'sha g'uddaygan "Esonberdiyev-hukumat", Boysun tarixidagi battol milisa, iste'foga chiqqach, Qo'rg'onchadagi nafasi o'tkir mulladan biro y eskicha*



*saboq olib, dastor o‘rab qaytibdi, hozir xatmi Qur‘on-u chilyosingacha usiz o‘tmas emish (Bir kuni xudoyiga ketayotib boshida salla, qo‘lida aso, milisaxona oldidan o‘tganda chest berib yuboribdi.)... (E.A‘zam, Anoyining jaydari olmasi: 12).*

“Chapaklar va chalpaklar mamlakati” asarida ironiya makromatn vositasida voqealanadi. *U yog‘ini so‘rasangiz, million-million odam istiqomat qiladigan mana shu jannatmonand shahar ham uning sharaflari nomi bilan ataladi! Shahar markazidagi baland tepalikka o‘rnashgan parlament saroyi qarshisida bo‘y cho‘zgan osmon barobar cho‘ng haykal ham uniki! (Aytishlaricha, O‘rta Osiyodagi Toshkent degan shaharda ham jahon yo‘qsillarining dohiysiga shunga yaqin bir haykal tiklangan ekan, ammo mustaqillikka chiqqach, sotsializm g‘oyalarini rad etib, uni ag‘darib tashlabdilar. Afsus, afsus! Yaxshilikni bilmaganlar! Mayli, o‘zlaridan ko‘rishsin, bir kun kelib pushaymon qilishlari muqarrar!) Ha-ha, tovarish Xon Man Men bekorga yashagani yo‘q, umri bekorga o‘tayotgani yo‘q. (E.A‘zam, Chapaklar va chalpaklar mamlakati: 22).*

Erkin A‘zam prozasida parantezalar shunchaki sintaktik qurilma emas, balki asarning g‘oyaviy-estetik mundarijasini belgilovchi stilistik dominantadir. Adib qavs ichiga olingan kiritmalar yordamida matn osti ma‘nolarini (podtekst) boyitadi, voqelikka subyektiv-tanqidiy munosabat bildiradi va o‘ziga xos "Erkin A‘zamona" ironik uslubni shakllantiradi. Bu vosita orqali o‘quvchi matnning yuzaki qatlamidan chuqurroqqa kirib, yozuvchi ko‘zda tutgan haqiqiy ijtimoiy va axloqiy xulosalarni anglab yetadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati



1. Abdurahmonov Sh. Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. Filol. fan. nom. diss. avtoref., 1998.
2. Аъзам, Эркин. Кечикаётган одам: Қиссалар.— Т.: «Шарқ», 2002 — 448 В.
3. Erkin A'zam. "Tanlangan asarlar" (I-II jildlar). – Toshkent, "Sharq", 2010.
- . Осиновская И. Илохий саргардонлик. Сатира ва худо // Ирония ва эпос. Мажозий соҳанинг поетикаси. - Москва, 2007, Б.104.
- 5.Йўлдошев М. Ёдгоров Қ. Бадий матннинг лисоний таҳлили. - Тошкент, Фан,